

**TIL O'QITISHDA YOZMA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH.
ESSE YOZISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

Sevinch Mirfayziyeva

ToshDO'TAU ona tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

sevinchmirfayziyeva@gmail.com /951543536

Annotatsiya : Mazkur maqola til o'qitishda yozma savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan. Yozma savodxonlikning o'quvchilar uchun ahamiyati, uning til o'rganish jarayonidagi o'rni, shuningdek, esse yozishning yozma savodxonlikni rivojlantirishdagi roli batafsil ko'rib chiqiladi. Maqolada yozma savodxonlikni o'rgatishda qo'llaniladigan usullar va esse yozish bo'yicha samarali tavsiyalar taqdim etiladi. Ushbu tavsiyalar o'quvchilarning yozma fikrlarini ravon va aniq tarzda ifodalash, ularning tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan iqtiboslar asosida savodxonlikni oshirishga doir aniq tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: yozma savodxonlik, esse yozish, til o'qitish, savodxonlikni rivojlantirish, fikrlash, tahlil, usullar.

Abstract: This article focuses on developing writing literacy in language teaching. It examines in detail the importance of writing literacy for students, its role in the language learning process, and the role of essay writing in developing writing literacy. The article presents methods used in teaching writing literacy and effective recommendations for essay writing. These recommendations help students express their written thoughts fluently and clearly, and develop their analytical and logical thinking skills. The article also provides specific recommendations for increasing literacy based on citations from scientific literature.

Keywords: writing literacy, essay writing, language teaching, literacy

development, thinking, analysis, methods.

Аннотация: Данная статья посвящена развитию письменной грамотности в преподавании языков. Подробно рассматривается важность письменной грамотности для учащихся, её роль в процессе изучения языка, а также роль написания эссе в развитии письменной грамотности. В статье представлены методы, используемые при обучении письменной грамотности, и эффективные рекомендации по написанию эссе. Эти рекомендации помогают учащимся выражать свои письменные мысли свободно и четко, а также развивать их аналитические и логические навыки мышления. В статье также представлены конкретные рекомендации по повышению грамотности на основе цитат из научной литературы.

Ключевые слова: письменная грамотность, написание эссе, преподавание языков, развитие грамотности, мышление, анализ, методы.

Yozma savodxonlik – bu nafaqat o'qish va yozish qobiliyatini, balki tilni tushunish va mantiqiy fikrlashni ham o'z ichiga oladi. Yozma savodxonlikni rivojlantirish til o'qitishda juda muhim o'rin tutadi, chunki o'quvchilar faqat yozma ifoda orqali o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashni o'rganadilar. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda esse yozishning roli katta. Esse yozish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini tizimli ravishda bayon qilishni, mavzuga oid dalillarni keltirishni va ilmiy uslubda yozishni o'rganadilar.

Yozma savodxonlik, asosan, tilni to'g'ri va samarali foydalanishning eng muhim shakllaridan biridir. Chunki yozish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini izchil ravishda ifodalay olishadi. Ona tili darslarida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi topshiriqlarni amalga oshirish mumkin:

1. Kundalik yozish. O'quvchilarga har kuni o'zlarining kundalik hayotidan biror voqeani tasvirlovchi 5-6 jumla yozishni taklif eting. Bu ularni tushunarli va to'liq gaplar tuzishga o'rgatadi.

2. Matn yozish. O'quvchilarga berilgan mavzuda matn yozish topshirig'ini

bering. Masalan, "Bizning maktabimiz", "O'zbekistonning mashhur joylari", "Tabiatni asrash" kabi mavzularni tanlash mumkin.

3. Sarlavha va qisqacha mazmun yozish. O'quvchilarga qisqa bir hikoya yoki maqola o'qing va undan sarlavha tanlab, qisqacha mazmunini yozishni so'rang. Bu ularni asosiy fikrlarni ajratishga o'rgatadi.

4. Dialog yoki monolog yozish. O'quvchilarga ijtimoiy mavzular haqida (masalan, "Internetning foydalari va zararli tomonlari") dialog yoki monolog yozishni topshiring. Bu ularni fikrlarni mantiqiy ravishda bayon qilishga o'rgatadi.

5. Reja asosida yozish. O'quvchilarga mavzu bo'yicha reja tuzishni va shu rejaga asosan hikoya yoki esse yozishni taklif eting. Reja yozma nutqning tuzilishini yaxshilaydi va o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

7. Fikrlar izohlash. O'quvchilarga biror fikrni izohlashni topshiring. Masalan, "Kitob o'qishning foydalari haqida yozing" yoki "Yaxshi o'qituvchining xususiyatlari" mavzularida fikr izohlarini yozish.

Ushbu topshiriqlar o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularga o'z fikrlarini aniq va mantiqiy ifoda etish imkoniyatini yaratadi.

O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda esse yozishning roli beqiyosdir, chunki esse yozishda o'quvchi o'z fikrlarini ilmiy va mantiqiy tarzda tashkil etishni o'rganadi. Yozma savodxonlikni rivojlantirishda ko'plab usullar mavjud. Shulardan biri – bu o'quvchilarga yozma ishlarni to'liq tushunib bajarishni o'rgatishdir. Shuningdek, o'quvchilarning yozish ko'nikmalarini oshirish uchun turli mashqlar, reja tuzish, muhokama qilish kabi metodlardan foydalanish samarali bo'ladi. "Savodxonlik - bu faqatgina o'qish va yozish ko'nikmalarining jamlanmasi emas, balki tilning chuqur tushunchasi va aniq ifodalash san'ati" [Shumsky, 2005]. Bu fikr esa yozma savodxonlikning chuqur mazmunini anglatadi.

Esse yozish yozma savodxonlikni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biridir. Esse – bu o'quvchining fikrini tizimli ravishda bayon qilish,

mantiqiy izchillikda dalillar keltirish va fikrni ishonchli tarzda taqdim etish imkoniyatini beradi. Esse yozish orqali o'quvchilar tilni nafaqat texnik jihatdan, balki intuitiv ravishda ham his qilishadi. Esse yozish orqali ular o'z bilimlarini kengaytirib, mavzuni chuqur tahlil qilishni o'rganadilar. O'quvchilarga esse yozishning eng yaxshi tavsiyasi – bu ularni birinchi navbatda o'z fikrlarini izchil va aniq tarzda ifodalashga undashdir.

Esse yozishning boshqa bir muhim jihati shundaki, u o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirishga o'rgatadi. "Yozma savodxonlikni rivojlantirishda o'quvchilarning shaxsiy tajribalari va ko'nikmalarini integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega" [Jenkins, 2012]. Bu fikr esse yozishning ta'lim jarayonidagi o'rnini yanada chuqurlashtiradi, chunki o'quvchi o'z fikrlarini keltirgan misollar va dalillar orqali asoslaydi. Esse yozishda o'quvchilarni tahliliy fikrlashga undash kerak. O'quvchilar o'z fikrlarini, fikrlarni dalillash orqali taqdim etishlari lozim. Har bir fikr va dalilni aniq misollar bilan asoslash esse sifatini oshiradi.

Esse yozish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Kirish va yakuniy qismdagi fikr asosiy masalaga uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, kirish qismida "Men... haqida shuni aytmoqchiman" deb boshlansa, yakuniy qismda "Men ...xulosaga keldim" kabi tugallanadi.

2. Esse yozishda his-hayajonli, ta'sirchan va badiiy bo'yoqdor so'zlardan foydalaniladi.

3. Esse ko'lamiga e'tibor berish. (200-250 so'zdan iborat bo'ladi. Kirish –60-70 so'z, asosiy qism –100-130 so'z, xulosa – 30-40 so'z)

4. Esseda birgina mavzu atrofida fikr yuritiladi. Unda birgina fikr o'rta tashlanadi va rivojlantiriladi. Uning bir necha mavzu va bir qancha g'oyasi bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

5. Esse erkin kompozitsiya asosida yoziladi. Yaxshi essenini mavzuni yaxshi tushungan, uni har tomonlama idrok eta olgan, o'z g'oyalari bilan o'quvchini o'ylanishga majbur eta oladigan odamgina yoza oladi.

6. Esse yozishda bir qolipdagi soʻzlardan foydalanish, soʻzlarni qisqartirish, yuzaki xulosa chiqarishdan xoli boʻlish kerak. Esse tili salmoqlilikni talab qiladi. Bunda esse mavzusini oydinlashtirish, hajmini va maqsadni aniq belgilab olish muhimdir.

7. Esseda badiiy toʻqima va fantaziya boʻlmaydi. Unda adabiy til uslublaridan toʻgʻri va oʻrinli foydalaniladi.

8. Esse ixcham hajmli boʻlgani bois, fikr-mulohaza bildirishda batafsil hikoyalashdan cheklanish, keltirilgan maʼlumotni ipidan ignasigacha bayon etishdan saqlanish, bir aytilgan fikrni yana qayta takrorlashga yoʻl qoʻymaslik kerak. Uzundan uzoq, aralash turdagi qoʻshma gaplar oʻrniga qisqa va ixcham ifoda usulini qoʻllagan maʼqul.

9. Esse xatboshilarga toʻgʻri ajratilishi kerak. Esseni yozib boʻlgach, uni qayta-qayta oʻqib chiqish tavsiya etiladi.

10. Ensiklopediya va turli manbalardan olingan maʼlumotlar oʻz oʻrnida qoʻllanilishi kerak. Aks holda, essening badiiyligi va taʼsirchanligiga putur yetadi.

Esse yozishda shaxsiy munosabatning bildirilishi, tezis – kalit soʻzni toʻgʻri aniqlash, faktli dalillar (argumentlar), nazariyaga asoslanish, atamalarni oʻz oʻrnida qoʻllash, sitatlar keltirish, mantiqiy qonuniyatning saqlanishi, taqqoslash va xulosalash usullaridan foydalanish, savodlilik (uslubiy, imlo, tinish belgilari) kabi talablarga qatʼiy rioya qilish zarur.

Esse yozish orqali o'quvchilar tilni mantiqiy, ravon va aniq ifodalashni o'rganadilar. Maqolada taqdim etilgan tavsiyalar esa esse yozish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Mavzu tanlashdan tortib, yozma ishni tahlil qilishgacha bo'lgan jarayonlar o'quvchilarga yozma savodxonlikni oshirishda yordam beradi. Til o'qituvchilari esa o'quvchilarni o'z fikrlarini izchil va aniq ifodalashga o'rgatishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. V Shumsky. Yozma savodxonlikni rivojlantirish: Nazariy va amaliy yondashuvlar. – Moskva: Yurt nashriyoti, 2005
2. Jenkins P. Yozma savodxonlik: O'qituvchilar uchun qo'llanma // Oxford University Press. 2012
3. R Gagne. Talimda yozma savodxonlik. – Boston: Pearson Education, 2012
4. D.Petrov. Ilmiy yozuv: Tavsiyalar va a maliyot. – Sankt-Peterburg: Nauka, 2010.